



Xodimga ish vaqtdan tashqari ish berish mumkinmi?

2-betda o'qing ➤



O'rta maxsus tahsil uchun ta'lim krediti beriladimi?

6-betda o'qing ➤

INSON va qonun

2023-YIL
17-OKTABR
SESHANBA

№ 41 (1401)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/



NOTARIAT SOHASIGA BAG'ISHLANGAN XALQARO KONFERENSIYA O'TKAZILDI

Samarqandda O'zbekiston Notarial palatasi va Xalqaro notariuslar ittifoqi Xalqaro notarial hamkorlik komissiyasi hamkorligida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Tadbirda 5 ta qit'adan qirqaqqa yaqin mamlakatlarning notariat tizimlaridan delegatsiyalar ishtirok etdi.

O'zbekiston Notarial palatasi va Xalqaro notariuslar ittifoqi Xalqaro notarial hamkorlik komissiyasining hamkorligidagi konferensiya "Notariat

sohasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish" hamda "Raqamlashtirish davrida notariatning o'rnini" mavzulariga bag'ishlandi.

Anjumanga Xalqaro notariuslar ittifoqining Xalqaro notarial hamkorlik komissiyasi prezidenti Richard Bok moderatorlik qildi.

Tadbirda so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri Akbar Toshqulov keyingi yillarda mam-

lakatimizda notariat sohasida amalga oshirilgan islohotlar va kelgusidagi rejalarga to'xtaldi.

Mavzu yuzasidan Senegal, Buyuk Britaniya, Xorvatiya, Ispaniya, Avstriya, Argentina, Qozog'iston va boshqa davlatlar vakillarining ma'ruzalari tinglandi.

Tadbirning ikkinchi yarmida O'zbekiston notarial palatasi bilan Turkiya notariuslar ittifoqi, Vengriya hamda Mo'g'uliston notarial palatalari

o'rtasida hamkorlik memorandumlari imzolandi va kelgusida hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar belgilab olindi.

Konferensiyada Xalqaro notariuslar ittifoqining Xalqaro notarial hamkorlik komissiyasi prezidenti Richard Bok hamda ittifoq faxriy prezidenti Kristina Armella xonimga O'zbekiston Notarial palatasi tomonidan ta'sis etilgan "Notariat sohasiga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishoni topshirildi.

ISH VAQTI HAQIDA HAMMA BILISHI ZARUR BO'LGAN 7 MUHIM MA'LUMOT

Salamat TUREMURATOV,
"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi mas'ul xodimi

**O'zbekistonda ko'pchilik mehnat shartnomasi asosida ishlaydi. Shartnoma tuzilayotganda ish beruvchi bilan ish vaqtini ke-
lishib olish muhim. Ko'p hollarda ish vaqtiga oid mehnat nor-
malarining buzilishi kuzatiladi. Bunga xodimning o'z mehnat
huquqlarini bilmasligi asosiy sabab hisoblanadi.**



6. Xodimga ish vaqtdan tashqari ish berish mumkinmi?

Ish beruvchi tomonidan xodimni xodim uchun belgilangan ish vaqti davomiyligidan tashqari ishga jalb etish ish vaqtdan tashqari ish deb hisoblanadi. Ayrim zarur hollardan boshqa hollarda ish vaqtdan tashqari ishga faqatgina xodimning roziligi bilan jalb qilish mumkin. Boshqa holatlarda xodimning roziligsiz ish vaqtdan tashqari ishga jalb qilish taqiqlanadi. Shu bilan birga, ish vaqtdan tashqari ish uchun ish beruvchi ish haqi va kompensatsiya to'lovlarini alohida tartibda amalga oshiradi.



Ish vaqtdan tashqari ishning davomiyligi xodim uchun surunkasiga ikki kun davomida 4 soatdan (mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda – bir kunda 2 soatdan) va yiliga 120 soatdan oshmasligi kerak.



7. Hammaga qisqartirilishi mumkinmi?

Ishlanmaydigan bayram kunlari arafasida har kunlik ishning (smenaning) davomiyligi barcha xodimlar uchun kamida bir soatga qisqartiriladi.

Bayramdan oldingi kuni ishning (smenaning) davomiyligini qisqartirish imkoni bo'lmagan taqdirda qo'shimcha dam olish kuni yoki haq to'lash orqali kompensatsiya qilinadi.

3. Normal davomiyligi deganda nima tushuniladi?

Xodim uchun ish vaqtining normal davomiyligi besh kunlik yoki olti kunlik ish haftasi uchun haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emasligi belgilangan.



Demak, normal ish vaqti 40 soatdan oshib ketsa, bu qonunbuzilishi hisoblanadi. Ayrim korxonalar o'zi uchun alohida ish rejimi va vaqtini ishlab chiqishi mumkin. Ammo ishlab chiqilgan ish rejimi va vaqti mehnat qonunchiligi talablariga zid bo'lmasligi lozim.

4. Voyaga yetmaganlar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun u qanday bo'lishi lozim?

Qonunchiligimizda ayrim toifadagi xodimlar uchun ularning yoshi, sog'lig'ining holati, mehnat shartlari, mehnat vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa holatlar hisobga olingan holda qonunchilikka hamda mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, shuningdek mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq mehnatga to'lanadigan haqni kamaytirmasdan ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi belgilanishi ko'rsatilgan.

5. Har kungi ish vaqti qancha bo'lishi kerak?

Har kungi ishning (smenaning) davomiyligi o'ziga nisbatan ish vaqtining normal davomiyligi belgilangan xodimlar uchun:

- olti kunlik ish haftasida – yetti soatdan;
- besh kunlik ish haftasida – sakkiz soatdan oshishi mumkin emas.



1. Ish vaqti nima?

Mehnat qonunchiligiga ko'ra, xodim ichki mehnat tartib qoidalariga, smenalarga bo'linib ishlash (ish) jadvallariga, boshqa ichki hujjatlarga yoki mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq mehnat majburiyatlarini qaysi vaqt mobaynida bajarishi kerak bo'lsa, o'sha vaqt ish vaqtidir.

Demak, xodim ishlashi kerak deb belgilangan vaqt bu ish vaqti. Ushbu vaqt rejimini mehnat shartnomasida ham ko'rsatib o'tish mumkin. Shu boisdan, ayrim xodimlar uchun alohida ish vaqti belgilangan bo'lishi mumkin.

2. Qanday turlari bor?

Ish vaqtining turlari quyidagilardan iborat:

- normal davomiyligi;
- qisqartirilgan davomiyligi;
- to'liqsiz ish vaqti.



"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida taraqqiyot strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining quyidagi yettita ustuvor yo'nalishi nazarda tutilgan:

- ☑ Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- ☑ mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- ☑ milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash;
- ☑ adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ☑ ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;
- ☑ umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;
- ☑ mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

"HARAKATLAR STRATEGIYASIDAN – TARAQQIYOT STRATEGIYASI SARI!"

Taraqqiyot strategiyasiga 2 ta yangi ustuvor yo'nalishning qo'shilayotgani ham muhim ahamiyatga ega. Bulardan birinchisi, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi, O'zbekistonning dunyoda yuz berayotgan global muammolarga munosabati negizida belgilangan yangi ustuvor yo'nalishdir.



MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH

Buning uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni ko'paytirish, bank tizimida xususiy sektor ulushini oshirish, qo'shilgan qiymat solig'ini amaldagi 15 foizdan 12 foizgacha, telekommunikatsiya, bank va moliya kabi sohalarda foyda solig'ini amaldagi 20 foizdan 15 foizgacha tushirish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish, raqamli iqtisodiyot hajmini 2,5 baravar ko'paytirib, dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 500 million dollarga yetkazish, iqtisodiyotga 120 milliard, shu jumladan, 70 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni kiritish ko'zda tutilgan.

ADOLATLI IJTIMOIY SIYOSAT YURITISH

Asosiy e'tibor, mulk huquqi daxlsizligini ishonchli himoya qilishni ta'minlash va qaror (harakat) noqonuniy emasligini sudda isbotlash majburiyatini mansabdor shaxsning o'ziga yuklash aybdorlik prezumpsiyasi, fuqarolarni yashash joyi bo'yicha hisobga olish ("propiska") tizimini yanada soddalashtirish va aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish, tekshirish uchun fuqaroni ichki ishlar bo'limiga olib borish o'rniga barcha ma'lumotlarni joyida tekshirish tartibini joriy etish, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jazoni o'tab bo'lganlarni jamiyatga reintegratsiya qilish va ularga tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish uchun "dastlabki ijtimoiy-maddiy yordam paketi"ni berish tizimini joriy etish, ma'muriy adliyani rivojlantirish orqali, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati usidan samarali sud nazoratini o'rnatish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish, ularning faoliyatini xalq manfaatlariga xizmat qilish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga yo'naltirish, shuningdek, advokatura institutining institutsional mustaqilligini ta'minlashga qaratiladi.

MA'NAVY TARAQQIYOTNI TA'MINLASH

"Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasi asosida sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish va "Kitobsevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish, jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirish, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish, 183 ta tuman va shaharda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish va foydalanishga topshirishdan iborat.

UMUMBASHARIY MUAMMOLAR YECHIMI

Xalqaro maydonda atrof-muhitga oid tashabbuslar, shu jumladan Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqishni ilgari surish, Orol dengizining tubida qo'shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, umumiy hajmini 2,5 million gektarga yetkazish, ekstremizm va terrorizm, ayniqsa uning zamonaviy ko'rinishlariga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish orqali kambag'allik va ishsizlik darajasini kamida 2 baravar qisqartirish, kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million ishsiz kishini kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulklarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi siyosatini olib borish katta ahamiyatga molik.

MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHIYATI

Bunda fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash, davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarining oldini olish hamda aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni bartaraf etish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni rivojlantirish, an'anaviy hamkorlar bilan munosabatlarni rivojlantirish, shuningdek BMT, global va mintaqaviy tashkilotlardagi faoliyatni kuchaytirish muhim.

Bekpo'lat AVAZMETOV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar mazkur strategiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish "O'zbekiston – 2030" strategiyasining asosiy maqsadlaridan biridir.

ADVOKATURA INSTITUTINI ISLOH ETISH YANGI BOSQICHDA

Strategiyaga ko'ra, advokatura institutini o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkazish hamda uning davlat organlari va boshqa tuzilmalardan chinakam mustaqilligini ta'minlash o'z navbatida 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri.



Ma'lumki, advokatura – huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Konstitutsiyamizga muvofiq fuqarolar, korxonalar, muassasalarga yuridik yordam ko'rsatadi.

Demak, advokat o'z faoliyatini professional darajada amalga oshirishi hamda himoyasi ostidagi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini bevosita ta'minlashi uchun chinakam mustaqil bo'lmog'li lozim. Zero, advokatning kasbga oid huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan qo'riqlanadi. Advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda bevosita yoki bilvosita aralashish, ular o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma'lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek advokatlarning birlashmalarining mansabdor shaxslaridan va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma'lumotlarni talab qilish taqiqlanadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganida unga biror-bir shaklda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Ammo, ayrim holatlarda advokatlar faoliyatida cheklovlar yohud boshqacha tarzda ularning faoliyatiga aralashishlar bo'layotgani ham sir emas.

Bundan tashqari, mas'ul idora vakillari tomonidan mamlakatimizda faoliyat yurituvchi advokatlarning aholi soniga nisbatan juda kamligi, ularga nisbatan talabning yuqoriligi ta'kidlanmoqda.

Ushbu holatni bartaraf etish maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasida advokatlar sonini kamida 2 ming nafarga ko'paytirish 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri etib belgilandi.

Dildora BOZOROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA



ADLIYA

BUXORO

ALIMENT UCHUN
QO'YILGAN
TAQIQNI QANDAY
YECHISH MUMKIN?

– Ollam bilan ajrashganman. Yo-yaga yetmagan farzandim uchun aliment to'layman. Mabodo boshqa davlatga ishga ketmoqchi bo'lsam, aliment uchun menga taqiq qo'yiladimi?

Sardor BAHODIROV,
G'ijduvon shahri

QAROR BORU
IJRO YO'Q

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi tomonidan fuqaro N. Tursunovaning ustama to'lovlarini to'lanmayotganidan norozi bo'lib qilgan murojaati o'rganib chiqildi.

O'rganish jarayonida N. Tursunovaga Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 5-band kichik "g" bandiga asosan to'lanishi lozim bo'lgan lavozim maoshiga har oy 100 foizlik ustama haqidan 106 million 721 ming 184 so'm miqdoridagi to'lovlar to'lanmayotgani aniqlandi.

O'rganish natijasida fuqaroning manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha G'ijduvon tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudning 2023-yil 25-iyuldagi hal qiluv qaroriga asosan da'vo arizasi to'liq qanoatlantirilib, fuqaroga 106 million so'mdan ortiq miqdordagi ustama to'lovi undirilishi belgilandi.

Tuyg'un AZIMOV,
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

SURXONDARYO

Xizmat safari xodimning ish beruvchi farmoyishiga binoan doimiy ish joyidan tashqarida xizmat topshirig'ini bajarish uchun boshqa joyga ma'lum muddatga qiladigan safaridir.

XIZMAT
SAFARI UCHUN
KOMPENSATSIYA

Xizmat safariga yuborilgan taqdirda ish beruvchi xodimga quyidagilarni qoplashi shart:

- ✓ yo'lkira xarajatlari;
- ✓ turar joy ijarasi xarajatlari;
- ✓ doimiy yashash joyidan tashqarida yashash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar (sutkalik);
- ✓ xodim tomonidan ish beruvchining ruxsati yoki roziligi bilan qilingan boshqa xarajatlar.


Xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplash miqdorlari jamoa shartnomasi yoki ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilingan ichki hujjat bilan belgilanadi.

Bunda xarajatlar o'rnini qoplash miqdori budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorlardan kam bo'lishi mumkin emas.

Bahrom SUVONOV,
Sariosiyo tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi

ANDIJON

Asaka tumanining "Oqbo'yra" mahallasida yashovchi Akmaljon Qodirov jismoniy harakatlari cheklanganligi bois nikohini qayd etish uchun kelin bilan FHDY bo'limiga kela olmasligi sababli ariza bilan murojaat qildi. Arizada u nikohini qayd etilishida amaliy yordam so'ragan.

KELIN-KUYOVNING NIKOHI
UYDA QAYD ETILDI

Asaka tuman adliya bo'limi va 1-son FHDY bo'limi, tuman hokimligi vakillari mazkur xonadonga borishdi. Xonadonning o'zida Qodirov Akmaljon bilan Mamayusupova Zaynabxonlarning nikohlari sayyor ravishda qayd etildi. Baxtiyor oila vakillariga nikoh tuzilgani haqidagi guvohnoma topshirildi. Akmaljon bilan Zaynabxon ko'zlarida quvonch bilan mehmonlarga minnatdorlik bildirishdi.

Asaka tuman hokimligi Matbuot xizmati



– Oila kodeksining 145-moddasiga asosan, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs doimiy yashash uchun yoki uch oydan ortiq muddatga chet davlatga ketayotganida qonunga muvofiq o'zi ta'minot berishi lozim bo'lgan aliment oluvchilar bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishi shart, kelishuv notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga erishilmagan taqdirda, manfaatdor shaxs aliment miqdorining pul bilan to'lanadigan qat'iy summa belgilanishi va alimentni bir yo'la to'lash to'g'risida yoki aliment evaziga muayyan mol-mulkni berish yoxud alimentni boshqa usulda to'lash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqli.

**Savolga G'ijduvon tuman
FXDY bo'limi 1-toifali inspektori
Zulfizar SAYFIYEVA javob berdi**

XALQ BILAN!

SURXONDARYO

ISH HAQI KECHIKTIRIB BERILSA, KOMPENSATSIYA TO'LANISHI SHART!

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 333-moddasida ish beruvchi ish haqi to'lash kechiktirilgani uchun xodimning oldida moddiy javobgar bo'lishi belgilangan.



Unga ko'ra, ish beruvchi ish haqini, ta'lim to'lovlarini, mehnat shartnomasi bekor qilindagi to'lovlarni va (yoki) xodimga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarni to'lash muddatini buzgan taqdirda, ularni to'lov muddatidan keyingi kundan e'tiboran to'haqiqatda hisob-kitob qilingan kuni o'z ichiga olgan muddatgacha har bir

kechiktirilgan kun uchun Markaziy bankning o'sha vaqtda amalda bo'lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda foizlar (pullik kompensatsiya) bilan birga to'lashi shart.

Mazkur pullik kompensatsiyani to'lash majburiyati ish beruvchining oylik ish haqini yoki xodimga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarni to'lashning kechiktirilishida aybi bor-yo'qligidan qat'iy nazar yuzaga keladi.

Shuningdek, Mehnat kodeksining 253-moddasiga ko'ra, xodimlarga ish haqi to'lash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mavjud bo'lmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas.

Xodimlarga oylik ish haqi, qoida tariqasida, 16 kundan ko'p bo'lmagan tanaffus bilan ikki qismga bo'lingan holda to'lanadi.

Ish haqi to'lanadigan kun dam olish kuniga yoki ishlanmaydigan bayram kuniga to'g'ri kelganda, ish haqi ushbu kunlar arafasida to'lanadi.

Musurmon ISHALIYEV,
Qiziriq tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

NAMANGAN

"Globfl finanst-xolding" MChJ rahbarining "Qamchiqavtoyoy" IYFUK tomonidan to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganidan norozi bo'lib qilgan murojaati Pop tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi. O'rganish jarayonida aniqlanishicha, MChJ va "Qamchiqavtoyoy" unitar korxonasi o'rtasida 2023-yil 15 va 16-mart kunlari pudrat shartnomalari tuzilgan.



TADBIRKORNI "TUNAMANG!"

Shartnoma shartlariga ko'ra, da'vogar javobgarga tasarrufidagi avtomobil yo'lining 229-230-kilometr qismi oralig'idagi hamda Guliston-Bo'ka-Angren-Qo'qon va Andijon orqali O'sh avtomobil yo'lining 248-kilometr qismi oralig'idagi

qor va tuproq ko'chkisiga qarshi tokchalar qurish, qarzdor esa bajarilgan ishlar haqini to'lab berish majburiyatini olgan.

Da'vogar tomonidan shartnoma bo'yicha 1 milliard so'mlik ishlar bajarilgani to'g'risida 2023-yil 31-iyuldagi 5-sonli hisob-faktura, 2023-yil 16-martdagi pudrat shartnomasi bo'yicha esa 1 milliard 97 million so'mlik ishlar bajarilganini tasdiqlovchi 2023-yil 31-iyuldagi 1-4 sonli hisob-fakturalar taqdim etilib, bajarilgan ishlar qarzdor tomonidan qabul qilib olingan bo'lsa-da, 2 milliard 97 million so'mlik qarzdorlik to'lab berilmagan.

Shartnomaning 4-bandida ishlar qiymati haqiqatda bajarilgan ishlar bo'yicha hisob-kitob qilinishi, 13-bandida to'lov jadvaliga asosan moliyalashtirilishiga kelishilgan.

Nizoni sudgacha hal etish uchun MChJ tomonidan javobgarga qarzdorlikni bartaraf etish yuzasidan joriy yilning 1-avgust kuni talabnoma yuborilgan, ammo talabnoma e'tiborsiz qoldirilgan.

Adliya bo'limi aralashuvi bilan Chust tumanlararo iqtisodiy sudga tadbirkor manfaatini ko'zlab da'vo arizasi kiritildi va murojaat ijobiy hal etildi.

Bahromjon ALIMOV,
Pop tuman adliya bo'limi boshlig'i

SURXONDARYO

Sariosiyo tuman adliya bo'limi tomonidan yuridik xizmat ko'rsatish markazi bilan hamkorlikda tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlarida, davlat tashkilotlari va maktablarda sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda.

"QIZIL HUDUD"GA KIRGAN MAHALLALARGA ALOHIDA E'TIBOR ZARUR




Tumandagi 4 ta sektor bo'yicha jami 11 ta mahalla fuqarolar yig'inlari "Qizil hudud" ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ushbu ro'yxatda bo'lgan mahallalarda aholi bilan bo'lgan yuzma-yuz muloqotlar chog'ida ulardan tushgan murojaatlarga huquqiy tushuntirishlar berilmoqda. Hozirgi kunga qadar "Ochiq maydon" shiori ostida tumandagi "Do'stlik", "Sangardak", "Subhidam", "Xalqobod", "Feruz", "Shirin", "M. Ulug'bek", "Afrosiyob", "Galabutta", "S. Sheroziy" va "Billur" mahallalarida tashkil etilgan ana shunday targ'ibot tadbirlarida malakali mutaxassislar tomonidan fuqarolarning savollariga javob berildi.

Mahallalarda jinoyatchilikni kamaytirish bo'yicha ishchi guruhlar tuzilib, muhim vazifalar belgilab olindi. Muhokamalardan so'ng yig'ilganlarga jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan tarqatma materiallar tarqatildi. Profilaktika inspektorlari va mahalla faollarining fikr-mulohazalari tinglandi. "Qizil hudud"ga kirgan mahallalarga alohida e'tibor zarurligi ta'kidlandi. Mahalla faollari mazkur mahallalarni "Qizil hudud" ro'yxatidan chiqarish masalasi bo'yicha qilinishi zarur bo'lgan vazifalarni muhokama qilishdi. Har bir mahalladosh tartib-intizomli bo'lishi, xonadonlardagi o'zaro kelishmovchiliklarni nizolansiz bartaraf etish lozimligi aytiladi. Qo'ni-qo'shnilar bilan ahil yashash, mahallada sodir etilishi mumkin bo'lgan bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik va boshqa jinoyatlarning oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish bo'yicha takliflar bildirildi. Yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan norasmiy diniy oqimlarga kirib qolish holatlarini bartaraf etish zarurligi aytiladi. Ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirish, ish bilan ta'minlanmagan yoshlarni ish bilan ta'minlash choralari ko'rish zarurligi ta'kidlandi.

Najmiddin ESHMURZAYEV,
Sariosiyo tuman adliya bo'limi bosh yuriskonsulti

6 "MADAD" JAVOB BERADI



O'RTA MAXSUS TAHSIL UCHUN TA'LIM KREDITI BERILADIMI?

- O'rta maxsus yo'nalishda tahsil olaman. Texnikumda o'qish uchun ham ta'lim krediti olishim mumkinmi?

Ziyodaxon SHAMSIDDINOVA, Samarqand shahri

- Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-avgustdagi 457-sonli qarorining 15-bandiga ko'ra, oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida o'qishi uchun ta'lim kreditlari ajratiladi. Shu sababli Siz ham mazkur imtiyozdan foydalanishingiz mumkin.



ISH VAQTIDA BOLANI OVQATLANTIRISH MUMKINMI?

- Davlat ishida ishlayman. Yosh bolam bor. Ish vaqtida bolani ovqatlantirish uchun vaqt ajratiladi deb eshitdim. Buning qonuniy tartibi qanday?

Maftuna KAMOLOVA, Oqdaryo tumani

- Mehnat kodeksining 407-moddasiga muvofiq, ikki yoshga to'lmagan bolaning ota-onasidan biriga (vasiy-siga) dam olish va ovqatlantirish uchun tanaffusdan tashqari bolani ovqatlantirish uchun qo'shimcha tanaffuslar beriladi. Bu tanaffuslar kamida har uch soatda, har biri o'ttiz minutdan kam bo'lmagan davomiylikda beriladi. Ikki yoshga to'lmagan ikki yoki undan ortiq farzandi bo'lgan taqdirda, tanaffusning davomiyligi kamida bir soat qilib belgilanadi. Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar ish vaqtiga kiritiladi va o'rtaicha ish haqi bo'yicha haq to'lanadi. Ikki yoshga to'lmagan bola otasining yoki onasining (vasiy-sining) xohishiga ko'ra bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusga qo'shib berilishi yoxud ish kunining (smenaning) tegishincha qisqartirilgan holda boshiga yoki oxiriga ko'chirilishi, shu jumladan jamlangan holda ko'chirilishi mumkin. Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar faqat ota-onadan biri bolani parvarishlash ta'tilida bo'lmagan va bunday tanaffuslar-

dan foydalanmayotgan taqdirda beriladi. Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslarning aniq davomiyligi va ularni berish tartibi jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra ish beruvchi tomonidan belgilanadi.



KREDIT QARZDORLIGINI TO'LAMAGANLARGA JAVOGBARLIK BORMI?

- Uzrli sabablarga ko'ra kredit qarzdorligini to'lamasam, bu ishimga javobgarlikka sabab bo'ladi? Shu haqda ma'lumot bersangiz?

Dildora JALOLOVA, Payariq tumani

- Fuqarolik kodeksining 324-moddasiga ko'ra, qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart. Agar qonunchilikda yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo'lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilgan bo'lmasa, - da'vo qo'zg'atilgan kunda mavjud bo'lgan narxlar e'tiborga olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to'lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo'lgan narxlarni e'tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin.



UY-JOYGA DA'VOGARLIKKA HAQLIMANMI?

- Sobiq turmush o'rtog'im oila qurishimdan oldin uy olgan. Hozir birga yashamaymiz. Men o'sha uyga da'vogarlik qilishga haqqim bormi?

Marjona SUYUNOVA, Pastdarg'om tumani

- Oila kodeksining 25-moddasiga asosan er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki ulardan har birining o'z mulki hisoblanadi. Nikoh davomida er-xotinning umumiy mulki yoki

ulardan har birining mol-mulki yoxud er va xotindan birining mehnati hisobiga mol-mulkning qiymati ancha oshishiga olib kelgan mablag'lar (kapital ta'mirlash, qayta qurish, qayta jihozlash va boshqalar) qo'shilgani aniqlansa, er yoki xotindan har birining mol-mulki ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin. Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulkari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.



CHIROYLI AVTORAQAM QAYERDA BERILADI?

- Mashinamning raqamini almashtirmoqchiman. Chiroyli avtoraqam olish uchun qayerga murojaat qilishim kerak? Shuning tartibini tushuntirib bersangiz?

Mirzaakbar RASULOV, Oqdaryo tumani

- Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 31-avgustdagi 683-sonli qaroriga ko'ra, davlat raqami belgisini olish uchun avtotransport vositalari uchun - BHMning 1,5 baravari miqdorida to'lov qilinadi. Bundan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar "oltin (chiroyli)" davlat raqam belgisini auksion yoki buyurtma orqali olishlari mumkin. Transport raqami savdolarida Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan birjaga taqdim qilingan ro'yxat bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari Jamoat xavfsizligi xizmati Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalarining ro'yxatdan o'tkazish va imtihon olish bo'linmalari ishtirok etadi.

AJRIMNING QONUNIY TARTIBI QANDAY?

- Oilaviy kelishmovchilik sababli ajrashmoqchiman. Lekin xotinim farzand kutayotganini aytdi. Bunday holatda ajrashishning qonuniy tartibi qanday?

Hasanboy JUMAYEV, Samarqand shahri

- Oila kodeksining 39-moddasiga ko'ra, xotinning homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotinning roziligsiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga haqli emas. Agarda siz tomoningizdan sudga ariza berilsa, sudya siz va turmush o'rtog'ingiz o'rtasida turmushingizni saqlab qolish imkoniyati yo'q bo'lsa, nikohdan



Savollarga "Madad" NNT Samarqand shahar huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi
Malika TOLLIBAYEVA
javob berdi

ajratadi. Lekin erting arizasiga ko'ra bu harakat amalga oshirilmaydi. Oliy sud Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 6-bandiga ko'ra, garchi farzandingiz tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftarida bolaning otasi sifatida yozilmasangiz ham, ariza berishga haqli emassiz. Mazkur qoida bola o'lik tug'ilgan yoki bir yoshga to'lmay vafot etgan hollarga ham tatbiq etilishi belgilangan.



ALIMENT TO'LANAYOTGAN DAROMADNI QANDAY TEKSHIRSA BO'LADI?

- Ajrashganmiz. Sobiq turmush o'rtog'im 5 million so'mdan ortiq oylik oladi. Lekin, qandaydir hujjat qilib olgan, alimentni kam to'laydi. Ish joyiga borsam, o'rtamizda yana nizo chiqishi mumkin. Uning jami daromadlarini qanday tekshirtirsa bo'ladi?

Sanam NURILLAYEVA, Payariq tumani

- O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 258-II-sonli qonuniga ko'ra, davlat ijrochisi aliment bo'yicha pul mablag'larining qarzdorning ish haqidagi to'g'ri ushlab qolinishi va o'z vaqtida o'tkazilishi yuzasidan undiruvchining arizasiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan tekshirish o'tkazishi mumkin. Shu sababli, Siz aliment pullari to'g'ri ushlab qolinayotganini tekshirish uchun davlat ijrochisiga murojaat qilishingiz kerak. Agar aliment to'lovchi yoki u ishlayotgan tashkilot vakili ijrochining talabiga ko'ra noto'g'ri ma'lumot bersa yoki ma'lumot bermasa, ularning bu harakati javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shu yilning 10-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent shahri bo'yicha boshqarmasining N-harbiy qismi xodimlari Ma'ruf Kamoliddinov va Latif Bo'stonov (ism-shariflari o'zgartirilgan)lar "Qo'yliq" dehqon bozori atrofi-da xizmat olib borishayotgandi. Soat 10:30 larda boshqarma navbatchilik qismidan maxsus aloqa vositasi (ratsiya) orqali "Vodiy yo'nalishida harakatlanuvchi avtomashinalar turargohi" orqa tomonidan noma'lum erkakning murdasi topilgani haqida xabar beriladi. Ular darhol xizmat avtomashinasida voqea joyiga yetib borishadi.

QO'YLIQ YAQINIDAGI QOTILLIK

yo'xud kalavaning uchi telefondan topildi



O'sha paytda murda beton yo'lakda yotganini ko'rishadi. Prokuratura va IIB xodimlaridan iborat tezkor guruh yetib kelgach, yon-atrof sinchiklab ko'zdan kechirila boshlanadi. Oqibatda taxminan 100-150 metrilar chamasi nariroqdan yana bir erkakning murdasi topiladi. Tezkor guruh harakatlari bilan dashtab murdasi topilgan fuqaro Oqil Vafuqulov, ikkinchisi esa turkman millatiga mansub Sapargeldi Fayazmetov ekanligi aniqlandi.

Qo'shni Tojikiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan Dadosodiq Hoshimov keyinchalik Rossiya Federatsiyasiga ketish maqsadida Urgut tumani orqali respublikamizga keladi. Ammo biroq pul ishlab topish uchun avval Samarqand va Andijon shaharlarida, so'ng poytaxtimizga kelib, ishlaydi. Ana shunday kunlarning birida - 2022-yilning 7-mart kuni soat 19:30 larda u Farg'ona vodiysiga qatnaydigan avtomobillar turargohi yonidan o'tib ketayotganda o'sha atrofda daydib yurgan, aroqxo'r kimsalar qiyofasidagi Oqil Vafuqulov va Sapargeldi Fayazmetovlarga duch keladi.

- Telefoningni berib tur, uka, - deydi Oqil salom-alikdan keyin.

Dadosodiq musiqa eshitayotgan quloqchisini qo'lga olib, uyali telefonini unga uzatadi. Shunda O. Vafuqulov qayergadir qo'ng'iroq qiladi. Bu paytda S. Fayazmetov u bilan suhbatlashib turadi. Biroq qo'ng'iroq qilgan kishisi javob bermagach, Oqil telefonni egasiga qaytarib beradi. Keyin u D. Hoshimovning quloqchisini qo'ldan tortib oladi.

- "Naushnik"ni qaytarib bering, aka! - talab qiladi Dadosodiq.

- Ey, ukaginam, qaytarib beraman shu zormandangni. Chunki menda telefon yo'q bu bilan musiqa eshitadigan, - deydi O. Vafuqulov. So'ng ikkala og'ayni D. Hoshimovni o'zlari yotib yuradigan ko'prik ostiga boshlashadi. - Yur, biz yashayotgan joyni ko'rgin.

Biroz yurgach, ular po'kaklar sochilib, ivirsib yotgan joyda to'xtashadi.

- Bizga bitta aroq olib berarsan-a, uka? - deb so'raydi Sapargeldi.

Lekin qo'lida quloqchin ushlagan Oqil Dadosodiqning javobini kutmay, katta ko'cha tomonga yuradi. Ko'p o'tmay, bir shisha aroq olib qaytadi. Ammo qo'lida quloqchin yo'q edi.

Shundan so'ng O. Vafuqulov va S. Fayazmetovlar o'sha aroqni ichishadi. D. Hoshimov esa ularga qo'shilmaydi. Ichkilikbozlik tugagach, u yana quloqchisini qaytarishni so'raydi.

- Ha, u narsangmi? Men uni aroqqa almashtirib keldim, - deydi kayfi oshib qolgan Oqil.

- Nega unday qildingiz? - jahli chiqsa ham o'zini bosadi Dadosodiq. - Yuring, aroq olgan joyingizni ko'rsating. Men pulini to'lab, "naushnik"ni qaytarib olaman.

Biroq aroq do'koniga borayotib, ular janjallashib qolishadi. Sapargeldi kesak bo'lagini D. Hoshimovga qarab otadi. Keyin unga O. Vafuqulov qo'shiladi. Bunday qo'pollik va hurmatsizlik esa Dadosodiqni battar tutaqirib yuboradi. U shu darajada jahli otiga minadiki, cho'ntagidagi o'zini himoya qilish uchun olib yuradigan pichoqni Oqilning ko'krigiga qanday sanchganini ham anglamay qoladi. Pichoq zarbidan sarxush O. Vafuqulov. yerga yiqiladi. Bu holatni ko'rib, S. Fayazmetov qo'rqanidan qochib qoladi. Lekin D. Hoshimov tezlik bilan uni quvib yetadi. Keyin uning orqa tomonidan pichoq uradi. Oqibatda turkman yigit yuztuban og'dariladi. Ammo jabrlanuvchilar o'rnidan qaytib turmaydi. Negaki, og'ir jarohati tufayli ikkalasining ham joni uziladi. Qatil esa qonga bo'yalgan pichog'ini tozalagach, voqea joyidan g'oyib bo'ladi. Murdalar o'sha yerda 3 kun qolib ketadi.

Xullas, 2023-yil 10-mart kuni huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga xabar kelib tushgach, jinoyatchining iziga tushiladi. Tezkor xodimlar avval marhumlarning yaqinlari bilan bog'lanshadi. Shunda Oqilning akasi Orif Vafuqulov 3 kun oldin ukasi notanish raqamdan qo'ng'iroq qilganini, biroq keyinchalik o'sha raqamga qaytib sim qoqqanida go'shakni ko'targan yigit Oqilni tanimasligini aytganini bildiradi. Qonun himoyachilari ana shu raqamni elektron dastur orqali tekshirishganda kalavaning uchi topiladi. Natijada Dadosodiq tez orada qo'lga olinib, unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atiladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Bektimir tuman sudi D. Hoshimovni Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismi "a va v" bandlari bilan aybdor deb topib, 19 yil muddatga ozodlikdan mahrum etdi.

Umid HAKIMOV,

jinoyat ishlari bo'yicha Bektimir tuman sudi sudyasi

Toshkent shahrida faoliyat yurituvchi "Zafar" MChJ (nomi o'zgartirilgan) rahbari Navoiy shahar hokimligi buyurtmasiga asosan yetkazib berilgan mahsulotlar uchun to'lov to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, Biznesombudsmanga murojaat qildi.

MUSHAKBOZLIK O'TDI, PUL NEGA O'TMADI?

Aniqlanishicha, "Zafar" MChJ va Navoiy shahar hokimligi o'rtasida 2022- yil 21-iyulda shaharda bo'lib o'tadigan bayram tadbirida mushakbozlik xizmatini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzilgan. Mazkur shartnomaga muvofiq bayram tadbirida belgilangan tartibda umumiy qiymati 55 million so'mlik mushakbozlik xizmati ko'rsatilgan. Shartnoma predmetiga ko'ra, pudratchi bo'lib o'tadigan bayram tadbirida mushakbozlik xizmatini ko'rsatish, buyurtmachi ko'rsatilgan xizmatlar haqqini to'lash majburiyatini olgan.

Shartnomaning 3,3-bandida ish bajaruvchi tomonidan ish bajarilgandan so'ng buyurtmachi shartnoma umumiy summasining 100 foizini 5 bank ishi kunida to'lab berishi belgilangan. Ish bajaruvchi tomonidan shartnomada belgilangan xizmatlar to'liq bajarilib, bu haqda 2023-yil 10-martdagi 1-sonli hisob-faktura ma'lumotnomasi tuzilib, tarafklar tomonidan tasdiqlangan.

O'rganish davomida jamiyat tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish yuzasidan 2023-yil 22-fevraldagi talabnoma orqali shahar hokimligiga murojaat qilingan. Biroq qarzdorlik qoplab berilmagani, topshirilgan mahsulotlar bo'yicha tuzilgan shartnoma g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tkazilmagani aniqlandi. Fuqarolik kodeksining 237-moddasiga asosan majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

O'rganish natijalariga ko'ra, Karmana tumanlararo iqtisodiy sudiga jamiyat manfaatini ko'zlab, dal'vo arizasi kiritildi va sudning 2023-yil 18-iyuldagi hal qiluv qarori bilan "Zafar" mas'uliyati cheklangan jamiyati foydasiga javobgardan 55 million so'm undirish belgilandi.

Ulug'bek NISHONOV,

Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni Navoiy viloyat sho'basasi yetakchi inspektori

E'LONLAR

Toshkent viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 4-oktabrdagi 289-um-sonli buyruqi bilan "BURGUT-2022" advokatlik byurosi advokati Rustamov Abdurazak Abdalimovichga 2021-yil 4-iyun kuni berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi TS 000480 raqamli litsenziya va advokatlik maqomi Nurafshon tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 22-avgustdagi hal qiluv qarori asosida 2 oyga to'xtatildi.

"Notariat to'g'risida"gi qonunning 15-moddasi va Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 28-sentabrdagi 9-son yig'ilish qaroriga asosan viloyati adliya boshqarmasi tomonidan Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Urunov Akmal Ixamovichga 2020-yil 22-aprelda berilgan KS 0004-sonli, Shahrisabz shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Melikova Dilfuza Ne'matjonovna 2020-yil 24-aprelda berilgan KS 0023-sonli va Qamashi tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muminova Dilbar Bunyevnaga 2020-yil 24-aprelda berilgan KS 0025-sonli xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 oy muddatga, ya'ni 2023-yil 10-oktabrdan 2023-yil 10-noyabr qadar to'xtatildi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Tuproqqa'li tuman sudining 2023-yil 18-iyuldagi hukmiga asosan "Legasis armie" advokatlik byurosi advokati O'qchorov Rustam Solimovich jinoyat kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda aybli deb topilganligi sababli unga Korazm viloyati adliya boshqarmasi tomonidan berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonuni 15-moddasi va Jizzax viloyati adliya boshqarmasi boshlig'ining 2023-yil 9-oktabrdagi 173-um-son buyruqiga asosan, Jizzax shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A. Suyunoyevga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va notarius maqomi 1 oy muddatga to'xtatildi.

Jizzax viloyati adliya boshqarmasi boshlig'ining 2023-yil 9-oktabrdagi 175-um-sonli buyruqiga asosan, "KAFOLAT" advokatlar hay'ati advokatlari Kuchkanov Abdusattor Jumanovich (181-sonli advokatlik guvohnomasi), Asilov Dilshod Buyukovich (168-sonli advokatlik guvohnomasi) va Berdiyev Shuhrat Zarifovich (000029-sonli advokatlik guvohnomasi)ning advokatlik maqomi advokatlik tuzilmasi tashkili etganiga qadar yoxud majud advokatlik tuzilmalaridan biriga ishgah kirgungacha qadar 3 oydan oshmaydigan muddatga to'xtatildi.

8 ADABIY AYVON



Abdulla QAHHOR

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yak-takchan og'il eshigi yonida turib dag-dag' tiraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'ri qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqq'aydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi.

Qobil boboning qo'shnisi – burunsiz ellikboshi kirdi. U og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi; negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

– Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi! Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyod sevitirdi. Chol yig'lab yubordi.

– Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...

Odamlar, o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig'idan to'xtab, ellikboshini duo qila ketdi. Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Qobil bobo qo'l qovushtirib uning ketidan yurar va yig'lar edi. – Yig'lama, yig'lama deyman! Ho'kizing og' qoshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.

*O'ning o'limi,
it'ning bayrami*
maqol

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu "Xudo yal-laqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun o'zmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqlidan emas. Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini ositirib kuldi. – Ha, sigir, yo'qoldimi?

– Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

– Ho'kizmi?... Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!..

– Bor-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

– Yo'qolmasdan ilgari bormidi?

Qandaqa ho'kiz edi?

– Ola ho'kiz...

– Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?

– Qo'sh mahali...

– Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?

– Bisotimda hech narsa yo'q...


– O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kelaber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

– Qidirtirsakmikin-a? – dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, – suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga "Ma, ho'kizing" deganday bo'lib ketdi.

– Kam bo'lmang, – dedi pulni uzatib, – yana xizmatimgizdaman.



– Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi.

Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir "duoning zo'ri bilan qulf ochadigan" Azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab yarim qop jiyda, uch yelpish tovoq jo'xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo'ldi:

– Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning argza borishi arbobning izzati bo'ladi!

Qobil bobo yor-do'stlari bilan kengashdi – pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da qildi. Cholning butun bo'g'inlari bo'shshib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oladimi! "O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan". "Yaxshilab tushuntirilgan" pristav bitta

kulungir, bitta farangi tovuq, uch so'm pulni olganidan keyin, Qobil boboning baxtiga, "beto'xtov hokimga xabar beraman" demasdan, "aminga bor", deb qo'ya qoldi. Amin "ellikboshiga borilsin", dedi.

– Gumoningizni ayting bo'lmasa! – dedi ellikboshi tajang bo'lib, – kim olganini men bilmasam, avliyo bo'lmasam! Olgan odam allaqachon so'yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko'nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ladi; xudo biladi, kavush bo'lib bozorga chiqdimi...

– Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa... – dedi chol yerga qarab.

– Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, Xudo ajalga to'zim bersin! Men qaynatamga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin. Bitta ho'kiz odamning xunimi? Erta-siga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achini va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin "kichkinagina" sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi...

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri
info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

Bosh
muharrirAsliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqrib
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3500
Buyurtma – 3073

Topshirilish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5